



FRANCE



FRANCE

## **VIRUSLI GEPATIT KASALLIGI KELIB CHIQISH SABABLARI VA DASTLABKI BELGILARI , VIRUSLI GEPATIT KASALLIGI PROFILAKTIKASI VA DIAGNOSTIKASI, VIRUSLI GEPATIT ERTA ANIQLASH VA DAVOLASH BO'YICHA QILINAYOTGAN ISHLAR.**

**Umarov Faxriddin Baxriddin o'g'li**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7514800>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Virusli hepatit qanday kasallik ekanligi, kelib chiqish sabablari, Virusli hepatit tufayli yuzaga keladigan o'zgarishlar va asoratlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Maqolada hozirgi kuning dolzarb momolaridan biri bo'lgan Virusli hepatit kasalligi profilaktikasi va diagnostikasi, hepatitni erta aniqlash va davolash bo'yicha qilinayotgan ishlarni muhim omillari talqin etildi. Virusli hepatit kasalligini oldini olish haqida buyuk tabiblarni fikrlari keltirilgan . Virusli hepatit kasalligini obyektiv va sbyektiv omillari tushuntirilgan. O'zbekistonda Virusli hepatit kasalligi profilaktikasi va diagnostikasi, hepatit erta aniqlash va davolash bilan bog'liq olib boriliyotgan ishlar haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: umumi intoksikatsiya, parenteral, Astenovegegativ, bilirubin,Gepatit

Virusli hepatit - o'tkir yuqumli kasallik; jigar hujayralarining zararlanishi, umumi intoksikatsiya belgilari, teri va shilliq qavatlarning sarg'ayishi, peshobning to'q sariq yoki "pivo"ga o'xshash, najasning oqimtir tusga (gilvata rangiga) kirishi, jigar, ba'zan taloqning ham kattalashishi bilan ifodalanadi. Virusli hepatit deganda bir-biriga o'xshash olti xil hepatit tushuniladi, bular A, V, C, D, E, G viruslari qo'zg'atadigan kasalliklardir. Ular yuqishiga qarab og'iz orqali (A, E) va parenteral yo'l bilan yuqadigan (B, C, D, G) xillarga ajratiladi. A va Ye virusli hepatitlarda viruslar bemorning axlati orqali tashqariga chiqadi. Shuning uchun axlat, suv, oziq-ovqat mahsulotlari, bemor foydalangan buyum va narsalardan ifloslanish juda xavfli hisoblanadi. Parenteral yo'l bilan yuqadigan Virusli hepatit lar shprits, igna va b. tibbiy asboblarni yetarli zararsizlantirmaslik oqibatida, shuningdek qon va qon preparatlari quyish hamda turli tibbiy muolajalar (ginekologik, stomatologik va b.) vaqtida yuqishi mumkin. Virusli hepatit lar davriy kechishi bilan harakterlanadi, uning yashirin, boshlang'ich, avj olgan, orqaga qaytish va sog'ayish davrlari ajratiladi. Kasallikning yashirin davri uning turiga qarab har xil: A va E virusli hepatitlarda 7 kundan 60 kungacha, parenteral yo'l bilan yuqadigan xillarida 2 haftadan 6 oygacha, ba'zan 1 yilgacha davom etishi mumkin. Virusli hepatit yengil, o'rta va og'ir, shuningdek asoratsiz va asoratli, o'tkir, surunkali hamda vaqt-vaqt bilan



qaytalanib turadigan shakllarda kechadi; ba'zan aralash xillari ham kuzatiladi. Homilador ayollar va bolalarda kasallik og'irroq kechadi. Virusli gepatitlarning shakli-shamoyili turlicha: grippga o'xshash, dispeptik, astenovegetativ, artralgik alomatlar, aralash sindromlar bilan hamda latent (klinik belgisiz). Kasallik grippga o'xshab boshlanganda bemor to'satdan qaltiraydi, eti uvishadi. boshi og'riydi, harorati ko'tariladi, a'zoyi badani qaqshaydi, yo'taladi va h.k. Dispeptik alomatlar bilan boshlanganida bemor ko'ngli aynib quşadi, me'da sohasida bir oz og'riq bo'ladi, ba'zan ichi ketadi; uning madori qurib, ishtahasi pasayadi, o'ng qovurg'asi ostida og'riq paydo bo'ladi. Astenovegegativ alomatlar bilan boshlanganda bemorning boshi aylanadi, og'riydi, ko'p terlaydi, o'ta injiq, yig'loqi bo'lib qoladi. Virusli gepatit larning boshlang'ich davri qanday sindrom bilan kechishidan qat'i nazar, shu kasallikka xos 3 belgi kuzatiladi: 1) siydikning pivo rangida bo'lishi; 2) axlat rangining oqarishi; 3) ko'pchilik (deyarli 90%) hollarda jigarning kattalashishi.

Kasallikning "sariqlik davri" ham o'ziga xos tarzda kechadi. Ko'z oqi sarg'ayishi bilan Virusli gepatitning avj olgan davri boshlanadi; A shaklida bemor sarg'ayishi bilan uning ahvoli ancha yengillashib tuzalinqiraydi. Parenteral yo'l bilan yuqadigan Virusli gepatitlarda, og'iz orqali yuqadiganlariga nisbatan sariqlik davri uzoqroq cho'ziladi, bemor tezda tuzalavermaydi, darmoni quriydi, ko'ngli ayniydi, ba'zi hollarda badani qichiydi (xolestatik xili). Virusli gepatitlarning xiliga qarab uning klinik alomatlari turlicha namoyon bo'lishi mumkin: sariqsiz o'tadigan shaklida pigment almashinushi buzilmaganligi sababli bemor sarg'aymaydi, siyidigi va axlatining rangi o'zgarmaydi, qonda bilirubin miqdori me'yorida bo'ladi. Bilinar-bilinmas belgilar bilan o'tadigan shaklida bemorning ko'zi qisqa muddat sal sarg'ayadi, bilirubin miqsori ham tezda o'z asliga keladi. Subklinik shaklida klinik belgilar deyarli kuzatilmaydi, uni faqat lab. tekshiruvlaridan bilish mumkin. Virusli gepatitning virus tashib yuruvchilik shakli ancha murakkab, u yashirin holda kechib, bora-bora surunkali tus oladi. Kasallikning surunkali xili ancha ogir asoratlarga (o'tkir jigar ensefalopatiyası, gemorragik, shish-assitik sindrom va b.) sabab bo'lishi mumkin.

Virusli gepatit tashhisi (diagnozi) asosan bemordan olingan ma'lumotlar, kasallikka xos alomatlar, qon tahlili va b. asosida qo'yiladi. Virusli gepatitning boshlang'ich davri dispeptik, kataral va soxta revmatoid sindromlarda kuzatiladigan belgilarga o'xshab ketganligi bois, uni ana shu kasallikkardan farqlay bilish lozim.

Virusli gepatitlarning oldini olishda shaxsiy gigiyena qoidalariiga bekamu ko'st amal qilish, kasallikni o'z vaqtida aniqlab, bemorni kasalxonaga yotqizish va u



FRANCE

## MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE

### International scientific-online conference




FRANCE

bilan yaqin bo'lganlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish hamda u tutgan idish-tovoq va buyumlarni dezinfeksiya qilish muhim. Kasalxonadan chiqqan bemorlar ma'lum muddat dispanser nazoratida bo'lishlari lozim. Kasallikning oldini olish maqsadida A va V gepatitlarga qarshi vaksinatsiya qilinadi (emlanadi). U yangi tug'ilgan chaqaloqlarga, 2-marta esa 1 oyligida teri ostiga yuboriladi. Revaksinatsiya bola 6 oyligida o'tkaziladi. Emlash natijasida 95% bolalarda kasallikka qarshi immunitet paydo bo'ladi; epidemiologik jarayonlarga qarab kattalarga ham vaksina yuboriladi, u birinchi bor qilingandan keyin oradan 1 oy va 6 oy o'tgach qayta emlanadi. Emlash natijasida immunitet paydo bo'lib, u 15— 20-yilgacha saqlanadi va kasallik tar-qalishining oldini oladi, virus tashuvchilik himoyalanadi. Profilaktika maqsadida bolalarga gammaglobulin (normal immunoglobulin) dan ukol qilinadi. Davolash asosan bemorning umumiylahvoli va kasallikning klinik belgilariga qarab olib boriladi; yengilroq xilida deyarli dori-darmonlar berilmaydi, kun tartibi va parhezga (qarang Parhez bilan davolash) rioya qilish tavsiya etiladi. Kasallikning boshqa shakllarida ham parhez va kun tartibiga amal qilishdan tashqari, glyukoza, vitaminlar, tuzli eritmalar, qon hamda plazma va qon o'rnni bosuvchi suyuqliklar, zarur hollarda gormonlar, antibiotiklar va h. k. buyuriladi. Bemorga vitaminlar, uglevodlar, oqsilga boy ovqatlar, shuningdek turli meva sharbatlari beriladi.

Virusli gepatit A kasalligi – bu o'tkir yuqumli jigar kasalligi bo'lib, qo'zg'atuvchisi gepatit A kasalligi virusi hisoblanadi. Har yili o'n millionga yaqin odam ushbu kasallikka chalinadi.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar boshqalarga nisbatan ko'proq kasallanadi. Inkubatsion davri, ya'ni virusning organizmga tushishi va kasallikning ilk belgilari paydo bo'lishi 15 kundan 50 kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Kasallikning yuqish yo'li alimentar yo'l bilan – virus bilan zararlangan oziq-ovqat mahsulotlari, suv, o'yinchoqlar va iflos qo'l orqali yuqadi. Virus tashqi muhitga chidamli 60°C haroratgacha bo'lgan chuchuk va sho'r suvda bir necha oylab saqlanishi mumkin. Gepatit A kasalligi jigar to'qimalarini yallig'lanish va nekrozli o'zgarishlar va intoksikatsiya (zaharlanish) sindromlarini paydo bo'lishi, jigar va taloqni kattalashishi, jigar faoliyatining klinik va laborator buzilishlari, sariqlik belgilarining paydo bo'lishi, siydiq rangini to'q rangga kirishi va axlatni rangsizlanishi bilan xarakterlanadi. Kasallik klinikasida quyidagi simptomlar namoyon bo'ladi: holsizlik va darmonsizlik, ishtaha yo'qolishi, ko'ngil aynish va qayt qilish, mushaklarda og'riq. Yashash va ish joylarining sanitariya jihatdan qoniqarsiz holatda bo'lishi, shaxsiy gigiyena





FRANCE

# MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE

## International scientific-online conference



FRANCE

qoidalariga rioya qilmaslik, aholining zichligi, oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash qoidalarini buzilishi, sifatsiz ichimlik suvidan foydalanish viruslarning ko'payishiga sharoit yaratadi.

Virusli gepatit kasalligidan qanday himoyalanish kerak?

- Sog'lom turmush tarziga rioya qilish.
- Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, ovqat tayyorlash va ovqatlanishdan oldin, jamoat joylari va hojatxonaga borgandan so'ng qo'lni yaxshilabsovunli suvda yuvish.
- Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va saqlash jarayonlarida sanitarepidemiologik qoidalarga rioya qilish.
- Meva va sabzavotlarni iste'mol qilishdan oldin oqar suvda yaxshilab yuvish, so'ngra qaynagan suvda yuvish.
- Yashash joy gigiyenasiga rioya qilish: xonalarni shamollatish va namli tozalov ishlarini olib borish.
- Pashshalarga qarshi – ichak infeksiyalarini tashuvchilariga qarshi kurash.

Virusli gepatit D yuqish yo'llari, alomatlari, davolash, profilaktikasi

Asosan jigar yallig'lanishi bilan kechadigan D gepatiti hozirgi vaqtda turli yoshdagi kishilar o'rtaida uchraydi. Bu kasallik gepatit B ning zamirida rivojlanadi.

Kuzatishlarga ko'ra, gepatit D virusi ko'pincha sterillanmagan tibbiy asbob- uskunalar orqali, masalan, qon quyganda, shuningdek tishlarni davolaganda, yetarlicha himoyalanmay jinsiy aloqa qilganda kishiga yuqib qoladi.

Bundan tashqari, D gepatiti virusi nuqsonli bo'lib, uning ko'payishida B gepatiti viruslari muhim rol o'ynaydi. Demak, o'tkir yo surunkali B gepatiti bilan og'riganlarda D gepatit yuzaga kelishi tezlashadi. Kasallik viruslari tashqi muhitga juda chidamli bo'ladi, biroq zararlangan joyni kislota va ishqorlar bilan artganda nobud bo'ladi.

Agar gepatit B bilan og'rigan odam ayni vaqtda gepatit D ga ham chalinib qolsa, super infeksiya, ya'ni bitta infeksiyaga boshqasining qo'shilishi ro'y beradi. Bunday holat ayniqsa:

- narkotik moddalarni inyeksiya yo'li bilan qabul qilganda;
- tez-tez qon almashtirib (ya'ni qon quydirib) turganda;
- gemodializ (sun'iy buyrak) apparatidan foydalanganda;
- badanga naqsh solish (tatuirovka) da;
- stomatologiya kursisida tishlarni davolatganda;
- tartibsiz jinsiy aloqa qilganda tez-tez ro'y beradi.



Kasallik yuqqandan keyin...

D hepatiti virusi qonga tushgach, jigarning eng ichkari hujayralarigacha yetib boradi. Ayanchli tomoni shundaki, D hepatitini yuqtirgan bemorning jigariligi B hepatiti virusi bilan albatta, og'igan bo'ladi. O'z-o'zidan ayonki, delta hepatiti virusi B hepatiti virusining genetik mahsulotlariga qo'shilib, (ochiqrog'i jigarda o'rashib) hujayralarda virus zarrachalarining ko'payishini faollashtiradi. Bu esa jigar hujayralarining kuchli zararlanishi va yallig'lanishiga olib keladi.

Virusli hepatit D alomatlari Ta'kidlash joizki, D hepatiti alomatlari (simptomlari) xuddi virusli hepatit B niki singari kechadi. Masalan, bemor quvvatsiz bo'ladi, salga charchaydi, terlaydi, kayfiyat salga buziladi, ish qobiliyati pasayib ketadi. Ayrim hollarda behollik shunchalar kuchayadiki, hatto bemorlar ish jarayonida ham dam olishga majbur bo'lishadi. Aksariyat bemorlar esa tezlik bilan oza boshlaydilar.

- Ayniqsa, kasallik xuruji davrida bemorlarning qariyb hammasida dispeptik sindrom (ya'ni doimiy ko'ngil aynishi, qayt qilish, ishtaha yo'qolishi) rivojlanadi.
- Ba'zi hollarda esa xuruj vaqtida bemorlar jigar sohasidagi og'riqdan shikoyat qiladi. Bunday og'riq ko'pincha jismoniy harakat paytida yoki parhez buzilganda paydo bo'ladi. Bemor o'ng biqinida xuddi "bir narsa osilib turgandek" bezovtalanadi. Bundan tashqari ozgina ovqat iste'mol qilinsa ham oshqozon sohasida og'irlik seziladi.
- Kasallikning og'ir turida uyquchanlik, burun va milklarning tez-tez qonashi, badanda sariqlikning kuchayishi kuzatiladi. Ayrim bemorlarning bo'g'imlarida og'riq turadi hamda tana harorati ko'tariladi. Jigar paypaslab ko'rilmaga qo'lga qattiq tegadi, qirrasi o'tkir, yuzasi tekis bo'ladi. 30-40 foiz holatlarda esa taloq kattalashishi mumkin.

Jigar serroziga bir qadam

Aytish joizki, D hepatiti (delta hepatit ham deyiladi) xurujlari yil davomida besh martagacha qaytalashi mumkin. Bu xurujlar vaqtida bemor biroz sovuqqotadi, mushaklari va suyaklarida og'riqni sezadi, badanidagi sariqlik kuchayadi. Ayrim bemorlar burnidan hech sababsiz qon ketadi, milki qonayveradi.

Delta hepatitga chalingan 10-15 foiz bemorlarda esa oyoqlar shishishi va qorinda suyuqlik to'planishi (istisqo) kuzatiladi.

Kasallik juda tez avj olib jigar sirroziga aylanib ketishi mumkin. Masalan, delta-hepatit bilan og'igan bemorlarning aksariyatida 6-7 oy ichida jigar sirrozi rivojlanadi.



Profilaktika, emlash, muolaja Kasallikning oldini olish uchun avvalo B gepatitiga qarshi o'z vaqtida emlangan ma'qul. Emlash to'g'ri bajarilsa kishi virusli D (delta) gepatitiga umuman chalinmaydi. Shuningdek odam juda hushyor bo'lishi, turmushda ozodalikka amal qilishi, ayniqsa, davolanayotgan paytlarda sterillangan asbob-uskunalardan foydalanishi lozim.

Muolaja jarayonida odatda virusga qarshi alfa-interferon qo'llaniladi. Bu preparat virusning jigar hujayralarida ko'payishiga qarshilik ko'rsatadi. Shuningdek bemorning immunitetini ko'tarish ham foyda beradi. Simptomatik (dori-darmonlar orqali) davo usullari yordamida qonni toksinlar (zaharlanishlar) dan tozalash buyuriladi. Bundan tashqari vitaminlar va gepatoprotektorlar (jigar hujayralarini himoyalovchi preparatlar) qo'llaniladi.

Virusli B va D gepatitlari bilan og'riganlar quyidagi mahsulotlardan o'zlarini tiyishlari kerak:

- yog'li shirin kulchalar, qatlama, sutga qorilgan xamirdan tayyorlangan pishiriqlar;
- nordon, shuningdek bochkada tuzlangan sabzavotlar va loviya yoki no'xat (qorinni dam qilmasligi uchun)
- qaynatilgan yoki qovurilgan tuxum, qaymoq va yog'li pishloq;
- gazlangan ichimliklar;
- achchiq qahva, muzqaymoq va qora shokoladlar;
- Murabbo, asal, qand va karamelli konfetlar cheklangan miqdorda iste'mol qilinadi.

Aytish joizki, bemor parhezga qat'iy rioya etsa asta-sekinlik bilan kasallikdan qutula boradi. Bordiyu parhezni buzib qo'ysa, ya'ni kuchli ovqat iste'mol qilsa, jigar faoliyati izdan chiqadi va gepatit surunkali tus olib, tuzalishi qiyin kechadi. Umuman surunkali B gepatiti va virusli D (delta) gepatit bilan og'rigan har bir bemor hayotiga jiddiy qarashi, o'z ahvolini doimiy nazorat qilishi va muolajani bosqichma-bosqich takrorlab turishi shart. Ayniqsa shifokor bilan bu borada maslahatlashish va uning buyurganlariga qat'iy rioya etish darddan forig' bo'lish imkonini beradi. Junaydullo Bahriyev, Samarqand: — Gepatit B bilan og'riganimdan keyin doim parhezga rioya etib yuraman. Bilganlarimni muxlislar bilan bo'lishish istagida maktub yo'llayapman. Parhez uchun buyurilgan taomlarni qachon va qanday iste'mol qilish, ayniqsa ularni tayyorlash qoidalariga rioya etishning ahamiyati katta. Chunki jigar kasalliklarida iste'mol qilinadigan taomlarga ziravor va tuzni kamroq solish kerak. Bunday taomlar yaxshi pishirilgan, iloji bo'lsa bug'da dimlangani ma'qul.



FRANCE

## MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE

### International scientific-online conference



FRANCE

- Sabzavot va yormalardan tayyorlangan go'shtsiz sho'rvalar, qiyimali ugra hamda mastavalar yengil taom hisoblanadi. Ovqatlarga yog'siz mol go'shti va tovuqning yumshoq joylaridan ishlatish kerak.

Palov tayyorlashda zirvagi kamroq qovurilib, unga qaynatilgan go'sht solishni tavsiya etaman. Shuningdek yog'siz baliqni qaynatib yoki gaz pechida pishirib iste'mol qilish ham mumkin. Sut-qatiq mahsulotlari yangi xolda bo'lsa yanada yaxshi. Ho'l mevalarning shirin turlaridan xomligicha yeb turish kerak. Yoki ulardan kompot va kisellar tayyorlab ichish mumkin.

#### Foydalanilgan adabyotlar:

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Virusli\\_gepatit](https://uz.wikipedia.org/wiki/Virusli_gepatit)
2. <https://avitsenna.uz/gepatit-d/>
3. <https://lex.uz/uz/docs/-6017442>
4. <https://nvs-railway.uz/oz/post/virusli-gepatit-va-uning-oldini-olish>
5. <https://daryo.uz/2020/09/04/muloyim-qotil-kir-qollar-kasalligi-gepatit-qanday-yuqadi-va-uning-turlari-haqida-nimalarni-bilish-kerak/>

